

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14688575>

UDK 576.8:591.557.81

## TOSHKENT VILOYATINING AYRIM TUMANLARIDA QO‘YLARNING ASOSIY GELMENTOZ KASALLIKLARINI O‘RGANISH

**Axmedov Saidmirzaxo‘ja To‘lqin o‘g‘li**  
**Ro‘ziyev Ma‘rufjon Ahmad o‘g‘li**  
**Jo‘rayev Javlon Karshibaevich**  
**Kamolov Fayzulaxon Burhon o‘g‘li**  
**O‘rinboev Olimjon Yuusufjon o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
Univaersiteti Toshkent filiali assistentlari

### ANNOTATSIYA

*Tadqiqotlar Toshkent viloyatining tog‘li hududlari - Oxangoron, Parkent, Bustonlik va sug‘oriladigan xududlari - Yuqorichirchiq, Oqqurg‘on, Zangiota va Yangiyo‘l tumanlarida parvarish qilinayotgan 425 bosh qo‘ylarni gelmintokoprologik tekshirish usullari asosida bilan olib borildi.*

*Shuningdek, maqolada qo‘ylarning asosiy gelmintozlarning iqlim geografik hududlar va qo‘y zotlari orasida tarqalish darajasi to‘g‘risida ma‘lumotlar hamda ayrim Osiyo mamlakatlari – Xitoy va Hindistondan eksport qilinayotgan antgelmint preparatlarining qo‘ylarning oshqazon- ichak gelmintozlariga qarshi samaradorlik natijalari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Qo‘ylar, gelmintoz, gelmintokaprologik, gelmintoovoskopik, fyuleborn, qayta yuvish, marshallagioz, nematodiroz, boshqa oshqazon ichak strongilyatozlari, monezioz, fassiolyoz “Proben OXY Plus”, “Ever Prizq”, “Nilzash S forte”.*

### ABSTRACT

*The research was carried out on the basis of methods of gelmintocoprological examination of 425 head sheep bred in the mountainous regions of Tashkent region - Oxangoron, Parkent, Bustonlik and irrigated territories - upper, Oqqurgan, Zangiota and Yangiyul districts.*

*The article also provides data on the extent of distribution of sheep’s major helminthoses among climatic geographic regions and sheep breeds, and the results of*

*the effectiveness of antgelminth preparations exported from some Asian countries – China and India - against sheep's Transcaucasian helminthoses.*

**Keywords.** *Sheep, helminthiasis, helminthocaprological, helminthoovoscopic, fouleborn, rewash, marshallagiosis, nematodiosis, other gastrointestinal strongillatoses, monesiosis, fasciolysis “Proben OXY Plus”, “Ever Prizq”, “Nilzash s forte”.*

**Mavzuning dolzarbligi.** Keyingi yillarda chorvachilikni yanada rivojlantirish maqsadida Respublikamizda chorvachilikning barcha tarmoqlari shu jumladan qo‘ychilikni rivojlantirish borasida qator meyo‘riy huquqiy hujjatlar chiqarilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4841-sonli, 2020 yil 29 yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli, 2022 yil 8 fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-sonli, 2022 yil 8 fevraldagi “O‘zbekiston respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120-sonli va boshqa muhim qarorlar qabul qilindi.

Yuqorida qayd etilgan qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun esa chorva mollarini sifatli va etarli darajada oziqlantirish, naslchilik seleksiya ishlarini yanada yaxshilash orqali chorva mollari zotini yaxshilash, veterinariya-sanitariya talablariga qat'iy rioya etish bilan birgalikda chorva hayvonlarining yuqumli parazitlar va yuqumsiz kasalliklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga qarshi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Bugungi kunda ham chorva mollarining parazitlar kasalliklari hisoblangan gelmintoz kasalliklari butun dunyoda ham xususan mamlakatimiz chorvachiligiga katta iqtisodiy zarar keltirib yotganligi hammamizga ma‘lum.

Shu sababli ham biz o‘z tadqiqotlarimizni chorvachilik shu jumladan, qo‘ychilik tarmog‘i rivojlangan Toshkent viloyatida olib borishni lozim topdik.

**Tadqiqotning maqsadi, joyi va usullari.** Tadqiqotlar Toshkent viloyatining tog‘li hududlari - Ohangoron, Parkent, Bo‘stonliq va sug‘oriladigan hududlari - Yuqorichirchiq, Oqqurgon va Zangiota tumanlarida parvarish qilinayotgan fermer va aholi qaramog‘idagi 312 bosh qo‘ylarda olib borildi.

Kaprogik tekshiruvlar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi qoshidagi Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo‘shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo‘yicha Davlat ilmiy Markazi laboratoriyasida gelmintokopologiyaning fyuleborn va qayta yuvish usullarida amalga oshirildi.

**Tekshirish natijalari.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Toshkent viloyatining tog'li hududlari hisoblangan Ohangoron, Parkent, Bo'stonliq tumanlarida tekshirilgan jami 258 bosh qo'ylarning 45 tasi yoki 17,4 foizi marshallagialar bilan, 87 tasi yoki 33,7 foizi nematodiruslar bilan, 61 tasi yoki 23,6 foizi boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan hamda 14 tasi yoki 5,4 foizi moneziyalar bilan zararlanganligi qayd etildi.

Tumanlar kesimida tahlil qilsak, Ohangoron tumanida tekshirilgan 92 bosh qo'ylarning 19,5 foizi marshallagialar, 36,9 foiz nematodiruslar, 32,6 foiz boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari va 15,2 foiz moneziyalar bilan, Bo'stonliq tumanida tekshirilgan 30 bosh qo'ylarning 10,0 foizi marshallagialar, 13,3 foiz nematodiruslar, 16,6 foizi boshqa oshqazon - ichak strongilyatlari bilan hamda Parkent tumanida tekshirilgan 136 bosh qo'ylarning 17,6 foizi marshallagialar, 36,0 foiz nematodiruslar hamda 19,1 foiz boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan zararlanganligi aniqlandi (*1 jadval*).

**Toshkent viloyatining tog'li hududlarida qo'ylarning gelmintlar bilan zararlanishi 1-jadval**

Tumanlar	Tekshirilgan qo'ylar	marshallagia		nematodirus		Boshqa oshqazon ichak strongilyatlari		Monezia	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Oxangoron	92	18	19,5	34	36,9	30	32,6	14	15,2
Bo'stonliq	30	3	10,0	4	13,3	5	16,6	-	-
Parkent	136	24	17,6	49	36,0	26	19,1	-	-
jami	258	45	17,4	87	33,7	61	23,6	14	5,4

Toshkent viloyatining sug'oriladigan hududlari-Yuqorichirchiq, Oqqo'rg'on, Zangiota va Yangiyo'l tumanlarida parvarish qilinayotgan 167 bosh qo'ylarning marshallagialar bilan 21,5 foiz, nematodiruslar bilan 28,7 foiz, boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan 35,9 foiz va fassiolar bilan 10,7 foiz zararlanishi qayd etildi.

Tumanlar kesimida esa Yuqorichirchiq tumanida tekshirilgan 74 bosh qo'ylarning 1,3 foizi marshallagialar, 20,2 foizi nematodiruslar, 4,0 foizi boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan, Oqqo'rg'on tumanida tekshirilgan 65 bosh qo'ylarning 49,2 foizi marshallagialar, 26,1 foizi nematodiruslar, 61,5 foizi boshqa oshqazon ichak strongilyatlari va 27,6 foiz fassiolar bilan, Zangiota tumanida tekshirilgan 18 bosh

qo‘ylarning 16,7 foizi marshallagiolar, 88,9 foizi nematodiruslar va 83,3 foizi boshqa oshqazon -ichak strongilyatlari bilan, Yangiyo‘l tumanida esa faqatgina 20,0 foiz boshqa oshqazon- ichak strongilyatlari bilan zararlanganligi ma‘lum bo‘ldi.

Tadqiqot natijasida olingan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tumanlari kesimida qo‘ylarning marshallagiolar bilan zararlanishi eng yuqori Oqqo‘rg‘on tumanida bo‘lib, 49,2 foizni, nematodiruslar va boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan zararlanish esa Zangiota tumanida 88,9 va 83,3 foizni tashkil etdi.

Biz o‘tkazgan tadqiqotlarda qo‘ylarning fassiolar bilan zararlanganligi faqat Oqqo‘rg‘on tumanida tekshirilgan qo‘ylarning 27,6 foizini tashkil etib, ushbu gelmintlar bilan qo‘ylarning zararlanishi Yuqorichirchiq, Zangiota va Yangiyo‘l tumanlarida qayd etilmadi. (2-jadval)

**Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tumanlarda qo‘ylarning gelmintlar bilan zararlanish darajasi** **2-jadval**

Tumanlar	Tekshirilgan qo‘ylar	marshallagia		nematodirus		Boshqa oshqazon ichak strongilyatlari		Fassiola	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Yuqorichirchiq	74	1	1,3	15	20,2	3	4,0	-	-
Oqqo‘rg‘on	65	32	49,2	17	26,1	40	61,5	18	27,6
Zangiota	18	3	16,7	16	88,9	15	83,3	-	-
Yangiyo‘l	10	-	-	-	-	2	20,0	-	-
jami	167	36	21,5	48	28,7	60	35,9	18	10,7

Tahlillarga ko‘ra, sug‘oriladigan hududda qo‘ylarning marshallagioz va boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari bilan kasallanishi bir muncha keng tarqalgan. Xususan, sug‘oriladigan parvarish qilinayotgan qo‘ylar marshallagioz bilan tog‘li hududlarga nisbatan 1, 2 marta (sug‘oriladigan hududda 21,5 foiz, tog‘li hududda 17, 4foiz), boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari bilan esa 1, 5 marta ( sug‘oriladigan hududda 35, 9 foiz, tog‘li hududda 23, 6 foiz) ko‘p tarqalganligi aniqlandi

Shuningdek,biz o‘z tadqiqotlarimizda qo‘ylarning turli zotlari orasida gelmintlarning tarqalish darajasini o‘rganib tahlil qildik.

Kaprologik tekshirilgan 92 bosh mayin jun beruvchi merinos zotli qo‘ylar 19, 5foizi marshallagialar bilan, 36,9 foiz nematodiruslar bilan, 32,6 foiz boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari va 15, 2 foiz moneziyalar bilan, go‘sh t yo‘nalishidagi qo‘shni Qirg‘iziston davlatidan olib kelinib boqilayotgan arashan zotli qo‘ylarda 1, 4 foizi marshallagialar, 22,3 foiz nematodiruslar, 7, 4 foiz boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari aniqlanib, moneziya va fassiolar bilan zararlanish aniqlanmadi.

266 bosh dagal junli go‘sh t yo‘nalishidagi mahalliy zotli qo‘ylarda 23,3 foiz marshallagialar, 32,3 foiz nematodiruslar, 32,3 foiz boshqa oshqazon -ichak strongilyatlar va 6,7foiz fassiolar bilan zararlanish qayd etildi.

Bizning tadqiqotlarda shuni ko‘rsatmoqdaki, arashan zotli qo‘ylarga nisbatan merinos va mahalliy zotli qo‘ylarning gelmintlar bilan zararlanishi birmuncha yuqoriligi ma‘lum bo‘ldi (3 *jadval*).

**Toshkent viloyatida turli zotli qo‘ylarning gelmintlar bilan zararlanish darajasi**  
**3-jadval**

Tekshirilgan qo‘ylar zoti	Tekshirilgan qo‘ylar	marshallagialar		nematodirus		Boshqa oshqazon ichak strongilyatlari		Monezia		Fassiola	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Merinos	92	18	19,5	34	36,9	30	32,6	14	15.2	-	-
Arashan	67	1	1.4	15	22.3	5	7.4	-	--	-	-
Mahalliy	266	62	23.3	86	32.3	86	32.3	-	-	18	6.7
jami	425	81	19	135	31.7	121	28.4	14	3.2	18	4.2

Tadqiqotlarimiz davomida biz Xitoy va Hindistonda ishlab chiqarilgan antgelmint preparatlarni qo‘ylarning ayrim oshqazon –ichak gelmintozlariga qarshi samaradorlik xususiyatini o‘rganildi.

Buning uchun 3 guruh 5 boshdan qo‘ylar ajratilib, 1-guruhga Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan “Proben OXY Plus” preparatidan qo‘ylarning 10 kg tirik vazniga 1 ml miqdorda, ikkinchi guruh qo‘ylarga Xitoyda ishlab chiqarilgan “Ever Prizq” preparatidan qo‘ylarning 20 kg tana vazniga 1 ml va uchunchi guruh qo‘ylarga esa Xindistonda ishlab chiqarilgan “Nilzash S forte” preparatidan qo‘ylarning 10 kg tana vazniga 2,5 ml miqdorda sinab ko‘rildi.

1-guruh qo‘ylar preparat berguncha gelmintooskopik tekshirganda 5 bosh qo‘ylarning 3 boshi yoki 60 foizi marshallagialar va hammasi ya‘ni 5 boshi ham 100 foiz nematodirus va boshqa oshqazon- ichak strongilyatlar bilan zararlangan

edi.

Ushbu zararlangan qo‘ylarning 10 kg tirik vazniga og‘iz orqali 1 ml dan Xitoyda ishlab chiqarilgan “Proben OXY Plus” preparati berildi va 7 kun o‘tgach, qo‘ylar takroran gelmintoovoskopik tekshirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Proben OXY Plus” antgelmint preparati qo‘ylarning 10 kg tirik og‘irligiga 1 ml miqdorda og‘iz orqali qo‘llanilishi qo‘ylarning marshallagia, nematodirus va boshqa oshqazon-ichak strongilyatlariga qarshi yuqori (100 foiz) eksten samara berishi qayd etildi.

Yuqoridagi tartibda yana bir Xitoyda ishlab chiqarilgan antgelmint “Ever Prizq” preparati yana 5 bosh qo‘ylarga sinab ko‘rildi, sinashdan oldin qo‘ylar gelmintoovoskopik tekshirishdan o‘tkazilganda 5 bosh qo‘ylardan 4 tasi (75 foiz) marshallagia va 5 tasi nematodirus va boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan (100 foiz) zararlangan edi.

Preparat berilgach 7 kun o‘tgach qo‘ylardan tezak namunalari olinib, gelmintoovoskopik tekshirganda 4 bosh marshallagialar bilan zararlangan qo‘ylarning 1 tasidan (25 foiz) marshallagia tuxumlari topildi, bu preparat marshallagialarga qarshi 75 foiz ekstens samara berishi, nematodirus va boshqa oshqazon ichak strongilyatlariga qarshi esa 100 foiz samara berishi ma’lum bo‘ldi.

Uchinchi gurux 5 bosh qo‘ylarga Hindistonda ishlab chiqarilgan “Nilzash S forte” preparati sinovdan o‘tkazildi.

Dori berilguncha 5 bosh qo‘ylarning 3 boshi (60 foiz) marshallagialar bilan va 5 bosh qo‘ylar ham nematodirus va boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan zararlangan edi.

Shu qo‘ylarga “Nilzash S forte” antgelmint preparatidan 10 kg tirik vazniga 2,5 ml miqdorda qo‘llanildi. Dori bergach 7 kundan keyin takroran gelmintoovoskopik tekshirish o‘tkazilganda 3 bosh marshallagia bilan zararlangan qo‘ylarning 1 tasida (33,3 foiz) marshallagia tuxumlari aniqlandi, ushbu dori marshallagialarga qarshi yuqoridagi miqdorda qo‘llanilganda 66,6 foiz ekstens samaraga egaligi, 5 bosh nematodiruslar bilan zararlangan qo‘ylarning 1 boshida (25 foiz) nematodirus tuxumlari aniqlanib, preparatning nematodiruslarga nisbatan ekstens samaradorligi 75 foizni tashkil etishi aniqlandi. Ushbu preparat yuqoridagi miqdorda 5 bosh boshqa oshqazon-ichak strongilyatlari bilan zararlangan qo‘ylarga berilganda 5 bosh qo‘ylarning hammasida boshqa oshqazon-ichak strongilyat tuxumlari aniqlanmadi, ya’ni ushbu preparatning yuqoridagi miqdori boshqa oshqazon-ichak strongilyatlariga qarshi 100 foiz ekstens samaradorlikga ega bo‘lishi tajribalarda ma’lum bo‘ldi.

### Xulosalar:

1. Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda Toshkent viloyatida parvarishlanayotgan qo'ylarda oshqazon ichak nematodozlaridan - nematodiroz, boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari va marshallagioz keng tarqalgan asosiy gelmintozlar kasalliklar hisoblanadi, sestodozlardan - monezioz va trematodozlardan fassiolyoz xam birmuncha tarqalgan gelmintozlar hisoblanadi.

2. Toshkent viloyatining sug'oriladigan hududida qo'ylarning marshallagioz va boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari tog'li hududlarga nisbatan keng tarqalgan. Xususan, sug'oriladigan hududda marshallagioz bilan zararlanish tog'li hududlarga nisbatan 1,2 marta (sug'oriladigan hududda 21,5 foiz, tog'li hududda 17,4 foiz), boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari esa 1,5 marta ( sug'oriladigan hududda 35,9 foiz, tog'li hududda 23,6 foiz) ko'p tarqalgan.

3. Tumanlar kesimida qo'ylarning marshallagioz bilan zararlanishi eng yuqori Oqqo'rg'on tumanida 49,2 foizni, nematodiroz va boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlari bilan zararlanish esa Zangiota tumani qo'ylarida aniqlanib, 88,9 va 83,3 foizni tashkil etdi.

4. Qo'ylarning gelmintlar bilan zararlanishi zotlar orasida ham bir muncha farq qiladi . Arashan zotli qo'ylarga nisbatan merinos va mahalliy zotli qo'ylarning gelmintlar bilan zararlanishi birmuncha yuqori hisoblanadi.

5. Xitoyda ishlab chiqarilgan "Proben OXY Plus" preparatini qo'ylarning marshallagioz, nematodiroz va boshqa oshqazon ichak strongilyatozlariga qarshi 10 kg tana vazniga 1 ml og'iz orqali qo'llanilganda samaradorligi 100 foizni tashkil etdi.

6. Xitoyda ishlab chiqarilgan "Ever Prizq" preparatini qo'ylarning 20 kg tana vazniga 1 ml og'iz orqali qo'llaganda marshallagiozga qarshi 75 foiz va nematodiroz va boshqa oshqazon ichak strongilyatozlariga qarshi 100 foiz ekstens samara berdi.

7. Hindistonda ishlab chiqarilgan "Nilzash S forte" preparatini qo'ylarning 10 kg tana vazniga 2,5 ml miqdorda og'iz orqali berilganda ushbu preparat marshallagiozga qarshi 66,6 foiz, nematodirozga qarshi 80 foiz va boshqa oshqazon ichak strongilyatozlarisha qarshi 100 foiz ekstens samaraga ega.

8. Sinalgan 3 ta preparatdan Xitoyda ishlab chiqarilgan "Proben OXY Plus" antgelmint vositasi qo'ylarning 10 kg tana vazniga 1 ml miqdorda qo'llanilsa, marshallagioz, nematodiroz va boshqa oshqazon-ichak strongilyatozlariga qarshi 100 foiz ekstens samaraga egaligi uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'ylarni yuqoridagi gelmintozlarni davolash va oldini olishda ko'proq ushbu preparatdan foydalanish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.X. Irgashev “ Гелминты и гелминтозы каракулских овец” Toshkent-1973 yil 14-53b.
2. Yo‘ldoshev N. E. “ Gelmintozlarga qarshi kurashning zamonaviy uslub vositalari” avtoreferat diss. Samarqand-2018. 1-22.b
3. A. O. Oripov, A. G‘. G‘ofurov, N. E. Yo‘ldoshev, Sh. A. Djabbarov, R. B. Davlatov, M. E. G‘oipova “ Qishloq xo‘jalik hayvonlarining parazitologiya va invazion kasalliklari” Darslik, Toshkent-2023 yil 52-158b.
4. I.X. Irgashev “ Гелминты и гелминтозы каракулских овец” Toshkent-1973 yil 14-53b.
5. Yo‘ldoshev N. E. “ Gelmintozlarga qarshi kurashning zamonaviy uslub vositalari” avtoreferat diss. Samarqand-2018. 1-22.b
6. A. O. Oripov, A. G‘. G‘ofurov, N. E. Yo‘ldoshev, Sh. A. Djabbarov, R. B. Davlatov, M. E. G‘oipova “ Qishloq xo‘jalik hayvonlarining parazitologiya va invazion kasalliklari” Darslik, Toshkent-2023 yil 52-158b.
7. Yo‘ldoshev N. E., Eshmuradov S. X., Yaxshieva D. A “ Respublikamiz veterinariya amaliyotida qo‘llanilayotgan antgelmint preparatlarning dorivor shakllari bo‘yicha o‘tkazilgan tahliliy o‘rganishlar”. Veterinariya meditsinasi jurnali 2024 yil 4 son 23-33b.